

SURXONDARYO VILOYATIDA KORONAVIRUS PANDEMIYASI OQIBATLARINI BARTARAF ETISHDA VILOYAT SOG'LIQNI SAQLASH SOHASI XODIMLARINING FIDOIYLIGI

Xujanazarov Absalom Ziyadullayevich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

absalomxujanazarov@gmail.com

Mamatraimov Komil Mamatmurod o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi assistenti

UO'K: 614.2(575.151)"1991/2020"

<https://orcid.org/0009-0001-5390-7728>

Annotatsiya: Maqolada koronavirus pandemiyasining Surxondaryo viloyatidagi holati, uning bartaraf etilishida Surxondaryo viloyati sog'liqni saqlash sohasi xodimlarining ko'rsatgan fidokorona xizmatlari, aholining sog'lig'ini mustahkamlash, sanitariya-epidemiologik xotirjamligini ta'minlash, karantin, o'ta xavfli va boshqa yuqumli kasalliklarning chetdan kirib kelishi, ularning aholi o'rtasida tarqalib ketishining oldini olish hamda viloyatda epidemiologik vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida karantinga olinayotgan fuqarolarni joylashtirish uchun mavjud klinikalardan foydalanish va yangi qurilgan maxsus klinikalar faoliyati batafsil tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Pandemiya, koronavirus, Surxondaryo viloyati, kasallikni yuqtirish, infeksiya, epidemiya, shifokorlar.

Аннотация: В статье подробно анализируется ситуация с пандемией коронавируса в Сурхандарьинской области, самоотверженные заслуги работников здравоохранения Сурхандарьинской области в ее ликвидации, укрепление здоровья населения, обеспечение санитарно-эпидемиологического благополучия, предотвращение проникновения карантинных, особо опасных и других инфекционных заболеваний извне, их распространения среди населения, а также использование существующих клиник для размещения граждан, помещенных на карантин, и деятельность недавно построенных

специальных клиник в целях стабилизации эпидемиологической ситуации в области.

Ключевые слова: Пандемия, коронавирус, Сурхандарьинская область, заражение, инфекция, эпидемия, врачи.

Abstract: The article provides a detailed analysis of the state of the coronavirus pandemic in the Surkhondaryo region, the selfless services of Surkhondaryo healthcare workers in its elimination, the strengthening of public health, ensuring sanitary and epidemiological well-being, preventing the import of quarantine, especially dangerous and other infectious diseases, their spread among the population, and the use of existing clinics and newly built special clinics to accommodate citizens placed in quarantine in order to stabilize the epidemiological situation in the region.

Keywords: Pandemic, coronavirus, Surkhondaryo region, disease transmission, infection, epidemic, doctors.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION. Surxondaryo viloyati aholisining sog'lig'ini mustahkamlash, davolash-profilaktika muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash va tibbiyot xodimlarining moddiy hamda ma'naviy jihatdan rag'batlantirish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini tashkil etadi. Bundan tashqari aholining sanitariya-epidemiologik xotirjamligini ta'minlash, karantin, o'ta xavfli va boshqa yuqumli kasalliklarning chetdan

kirib kelishi, ularning aholi o'rtasida tarqalib ketishining oldini olish o'ta muhim masala hisoblanadi.

Aholi salomatligini saqlash davlatimiz siyosatining bosh tamoyillaridan biri sanalib, hurmatli yurtboshimiz tomonidan hozirgi kunda aholi salomatligini muhofaza qilish hamda tibbiyot muassasalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash borasida bir qator farmon va qarorlar hayotga tatbiq etildiki barchasining zamirida inson manfaati va salomatligini qadrlash kabi ulug' maqsad mujassamdir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbekiston Respublikasiga (COVID-19) koronavirus infeksiyasining kirib kelishi hisobiga karantin e'lon qilinganligi va uning viloyatda tarqalishini oldini olish, bemorlarni davolash hamda alohidalash maqsadida viloyatda gospiatal, provizor, observatsiya va izolyator tizimini shakllantirish bo'yicha jami 37 ta obyekt ajratildi va ularda jami 3124 o'rin tayyorlandi[1].

Viloyatga 2020-yilning 10-aprel holatiga ko'ra chetdan kirib kelgan hamda muloqotda bo'lgan jami 34 ming 407 nafar fuqarolar kuzatuvga olingan, ulardan 24 ming 42 nafari jumladan 20 ming 835 nafari uy karantinga olinganlar, 3 ming 207 nafari esa statsionar sharoitida kuzatuvga olinganlar 14 kunlik kuzatuvdan so'ng hisobda chiqarilgan.

2020-yil iyun oyida 10365 nafar fuqarolar kuzatuvda bo'lib, ulardan 1806 nafar statsionar sharoitda 8559 nafari uy karantiniga olingan edi[2].

Shu davrda viloyatda 74 nafar fuqarolardan kasallik aniqlangan bo'lib, Shundan: charter reysdagilar — 28 nafar, boshqa viloyat fuqarosi-2 nafar (Tranzit yuk tashuvchilar: Sirdaryo va Samarqand viloyatlari), mahalliy fuqarolar 14 nafar, (4 nafar IIB, 6 nafar tibbiyot xodimlari, 1 nafar oshxona ishchisi, 3 nafar tranzit yuk tashuvchilar) edi.

Viloyatda mazkur infeksiyaning tarqalishining oldini olish bo'yicha barcha epidemiologik tadbirlar amalga oshirilib, aholi o'rtasida keng sanitariya targ'ibot ishlari olib borildi.

Gumon qilingan fuqaro bilan ish yuzasidan va ishdan tashqari holatda muloqotda

bo'lganlardan 700 nafardan ortiq fuqarolar alohidalash maqsadida 245 nafari statsionar jumladan "Surxon", "Ulug'bek" mehmonxonalarida hamda tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli yuqumli kasalliklar bo'limlarida va 448 nafari esa uy sharoitida kuzatuvga olindi.

O'rganilayotgan davrda mazkur kasallikni tarqalishini oldini olish, kasallanganlarni davolash jarayonida ishtirok etgan tibbiyot xodimlarini xam ma'nan va ruhan rag'batlantirib borildi. Jumladan, 2020-yil avgust oyiga qadar kasallik bilan davolangan bemorlarga xizmat ko'rsatishda ishtirok etgan 3 ta guruhda jami 92 nafar tibbiyot xodimlariga 1,3 mlrd. so'm mablag' to'lab berildi[3].

Respublika Bosh vazirining topshirig'iga asosan, COVID-19 koronavirusning kirib kelishi va tarqalishining oldini olish maqsadida 4,1 mlrd. so'mlik 61 turdagi dori vositalari, 996 mln. so'mlik 10 dona sun'iy nafas berish moslamasi yuqumli kasalliklar bo'limlarga yetkazib berildi. Epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash xamda aholi salomatligini muhofaza qilish tadbirlari uchun vazirlik tizimidagi maxsus tibbiy ta'minot omborxonalarida saqlanayotgan zaxiralardan davolash profilaktika muassasalariga 245 turdagi tovar moddiy boyliklari jumladan, 3 dona dezinfektsiyalovchi avtotransport, 3 dona rentgen diagnostika apparati, 14 dona elektrik ingalyatorlar keltirildi.

Karantin davrida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlami jami 809 dona reabilitatsiya texnik vositalari bilan bilan ta'minlanib, 239 172 043,05 ming so'm mablag' sarflandi[4].

Shundan 203 dona kattalar uchun nogironlar aravachasi, 43 dona bolalar uchun nogironlar aravachasi, 165 dona eshitish moslamasi berildi.

Epidemiologik vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida karantinga olinayotgan fuqarolarni joylashtirish uchun Termiz tumanidagi "Surxon" va "Xursandoy" sanatoriyalari, hamda Denov tumanidagi "Denov kardio shifo" klinikalari va "Sharq", "Ulug'bek", "Fidan" kabi mehmonxona rahbarlari o'z binolarini birinchilardan bo'lib foydalanishga bo'shatib berildi.

Respublikada pandemiya va tabiiy ofatlar tufayli iqtisodiy sohada qiyinchiliklar mavjud bo'lsada davlatimiz rahbari tomonidan aholi salomatligini muhofaza qilish, tibbiyot muassasalarning moddiy texnika bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, 2020-yilda Surxondaryo viloyat tibbiyot tizimida ham bir qancha ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Shu yili investitsiya dasturi asosida sog'liqni saqlashning 21 ta tibbiyot muassasalariga 55,7 mlrd. so'm mablag' ajratilib, joriy yilning shu kuniga qadar 14.4 mlrd. so'mlik qurilish ta'mirlash ishlari amalga oshirildi[5].

Viloyat kardiologiya markazini zamonaviy, yuqori texnologiyali tibbiy apparaturalar bilan jihozlash bo'yicha viloyat kardiologiya markaziga 7,1 mlrd. so'mlik 10 turdagi tibbiy asbob-uskunalar olib keltirildi. Natijada viloyatda Aritmologik kompleks tizimi yaratilib, yurakning murakkab aritmiyalarini xirurgik yo'l bilan davolash yo'lga qo'yildi. Bu kompleks faoliyati Respublikada birinchi bo'lib, Surxondaryo viloyatida joriy etildi. Shu bilan bir qatorda Respublikada birinchi marotaba tumanlarda bahosi 4,5 mlrd. so'mlik angiograf apparati va qiymati 1,5 mlrd. so'mlik 5 dona gemodializ apparati Denov tumanida ham o'rnatildi.

Bundan tashqari Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan xarid qilingan va qisqa muddatlarda yetkazib berilishi rejalashtirilgan MRT apparati joylashtirilayotgan xonalar viloyat mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan ta'mirlandi.

2020-yilda sog'liqni saqlash vazirligining taqsimotiga asosan 293 mln. mablag' hisobiga 5 dona Damas rusumli tez tibbiy yordam avtotransportlari ajratilib, 382,9 mln. so'mlik mahalliy mablag'lar hisobiga Bandixon tumaniga 5 dona Damas rusumli tez tibbiy yordam avtotransporti xarid qilindi[6].

Karantin davrida kasallangan bemorlarga malakali tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasiga 3 dona UZI apparati va 2 dona nebulayzer apparati bilan ta'minlandi.

O'rganilayotgan davrda viloyatda nodavlat tibbiyot muassasalarning rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, 2020-

yilning birinchi choragi davomida 10 ta xususiy tibbiyot muassasa yangi tashkil etildi va 3 tasi faoliyatini kengaytirilgan holda aholiga malakali tibbiy xizmat ko'rsata boshladi. Koronavirus pandemiyasi butun dunyoda bo'lgani singari respublika sog'liqni saqlash tizimida ham jiddiy o'zgarishlar yasash zarurligini ko'rsatdi. Qolaversa, ushbu epidemiya tizimida qator muammolar to'planib qolganligi va ularni tezlikda bartaraf etish zarurligini ham amaliy jihatdan isbotladi. Jumladan, koronavirus (COVID-2019) pandemiyasi viloyat sog'liqni saqlash tizimida ham qator muammolar to'planib qolganligini namoyon qildi. Bular quyidagilardan iborat:

Tez tibbiy yordam stansiyalari va shoxobchalarini ixtisoslashtirilgan avtotransport hamda brigadalarini kompyuter va telekommunikatsiya uskunalari, 149 ta mobil va 13 ta statsionar aloqa vositalari (ratsiyalar) va GPS-kuzatuvlari bilan markazlashgan holda jihozlash;

Termiz shahar tez tibbiy yordam bo'limi ("103") va sanitar aviatsiya xizmati uchun viloyatning tog'li, borish qiyin bo'lgan olis va chekka hududlaridagi aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish maqsadida 10 dona yuqori o'tuvchan bo'lgan "Gazel-Sobol 4x4" (V klass) va "Gazel" avtotransport negizida 2 dona "Mobil klinikalar" rusumli maxsus avtomashinalarni xarid qilish va zarur tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash;

viloyatda ayollar orasida sut bezi xavfli o'smasi kasalliklarini erta bosqichda aniqlash orqali bir yilgacha o'lim ko'rsatkichini kamaytirish va bemorlarning yashash davomiyligini oshirish maqsadida Denov, Sherobod, va Qumqo'rg'on tumanlari hamda Termiz shahar tibbiyot birlashmalarini raqamli mammograf bilan ta'minlash;

Shu bilan bir qatorda Angor tuman tibbiyot birlashmasi va viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasida investitsiya dasturi doirasida olib borilishi rejalashtirilgan qurilish ishlari dasturga kiritilmasdan qolgan.

Viloyat Hokimi tomonidan 2019-yilda namunali tuman sifatida tanlangan Termiz shahar va Jarqo'rg'on tumanlarida 2 ta ko'p tarmoqli markazi poliklinika 2 ta oilaviy poliklinika va Sharg'un shahar poliklinikasi

elektron poliklinika tizimiga o'tkazilgan bo'lib, boshqa tumanlarda amalga oshirilmaganligi aniqlandi.

Bundan tashqari Termiz shahrida shaharsozlik doirasida yangi imoratlar qurilishi hisobiga Termiz shahar fuqarolari Termiz tumani hududiga ko'chirilib, yashayotgan bo'lsada Termiz shahar hisobida turishi bu esa tibbiyot xodimlariga shtatlar ajratish, ularda emlash va patronaj ishlarini o'tkazishda muammolar keltirib chiqardi.

Qumqo'rg'on tumanidagi "Nogiron bolalar uchun internat muruvvat uyi" va Termiz tumanidagi "Nogironlarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazi"da olib borilayotgan qurilish ishlarini yakunlangan bo'lsada zaruriy tibbiy anjomlar bilan ta'minlanmaganligi oqibatida qator muammolar yuzaga keldi.

Shuningdek, viloyatdagi 94 ta QOPdan 43 tasi, 34 ta QVPdan 13 tasi mukammal ta'mirlashga muhtoj ekanligi aniqlandi. Vaholanki, bular joriy yilda Islom Taraqqiyot banki kreditlari hisobiga zamonaviy doplerli rangli UZI apparati, EKG apparati va stomatologik jihozlar bilan ta'minlandi.

COVID-19 koronavirus infeksiyasi bilan zararlangan bemorlarni davolashda viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasining moddiy texnika bazasini mustahkamlash zaruriyati tug'ildi.

Eng yomoni bu kasallik oddiy fuqaroda, nodavlat tashkilotlari bilan birga, davlat tashkilotlari ishchi-xodimlari orasida ham chiqmoqda.

Viloyatda 2020-yilning 28 aprelida 170 nafar aholi koronavirus infeksiyasiga chalingan bo'lsa, ularning 70 nafari (41,1 foiz) davolanib uylariga qaytarildi.

Bu bemorlarning 44 nafari shu yilning 7 maydan 23 iyuligacha aniqlangan bo'lsa, ularning 1 nafari vafot etdi va qolgan 43 nafari to'liq tuzalib uylariga kuzatildi. Ularning 126 nafari o'sha yilning 9 iyunidan 20 avgustiga qadar aniqlangan. Bemorlarning asosiy qismi Termiz shahri, Boysun, Denov, Muzrabot, Jarqo'rg'on, Sho'rchi tumanlaridan aniqlangan.

Kasallik aniqlangan bemorlarning 44 tasi Moskva shahridan charter reysda olib kelinganlar va chet mamlakatlardan yuk olib kelgan haydovchilar orasida, 126 nafari viloyat

aholisidan aniqlandi.

Viloyat aholisi orasida qayd qilingan 126 nafar bemorlarning 25 nafari bitta kasallik manbasi "Surxondaryo" mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK xodimi, ikkinchisi, Jarqo'rg'on tumani fuqarosi Toshkent shahrida qurilishda ishlab kasallikni yuqtirib olgan u bilan muloqotda bo'lgan 7 nafar fuqaroda kasallik aniqlangan.

Shuningdek, Boysun tumanidagi xalq banki xodimi Toshkent shahriga onasini davolatishga olib borganda, O'rikzor bozorida kasallikni yuqtirib olgan va u bilan muloqotda bo'lgan 1 nafar fuqaroda kasallik aniqlangan[7].

Shu bilan birga qayd etilgan kasalliklarning 90 nafardan ziyodi qo'shni Afg'oniston Islom Respublikasida xizmati davomida kasallikni yuqtirib kelgan.

2020-yil sentyabr holatiga ko'ra viloyatda shu bilan bog'liq 6751 nafar fuqaro karantinga olingan. Shundan, 703 nafari tibbiyot muassasalarida, 445 nafari sihatgoh va maxsus binolar hamda 5603 nafari o'z uylarida kuzatuvda bo'lgan.

Bundan tashqari viloyat milliy gvardiya boshqarmasi, ichki ishlar va bemorlarni davolashda va muloqotda bo'lganlarga tibbiy xizmat ko'rsatgan tibbiyot xodimlarida ham aniqlangan.

Shu davrda sanitariya gigiyena qoidalariga qat'iy amal qilgan holda iqtisodiyotning ko'p tarmoqlariga, korxona tashkilot va muassasalarga o'z faoliyatlarini davom ettirishga ruxsat berildi.

Biroq, faoliyatini davom ettirishga ruxsat berilgan ayrim tadbirkorlik subyektlari, korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari o'zlariga yuklatilgan javobgarlikni his qilmagan holda karantin qoidalariga rioya qilmasdan faoliyatlarini davom ettirishayotganligi, sanitariya-gigiyena qoidalarini qo'pol buzilayotganligi, aholi tomonidan karantin qoidalariga amal qilinmayotganligi koronavirus infeksiyasi bo'yicha epidemiologik vaziyatning keskinlashuviga sabab bo'ldi.

Aholi salomatligining muhofaza qilish borasida olib borayotgan tinimsiz harakatlar natijasida o'rganilayotgan davrning keyingi 4-yili davomida sog'liqni saqlash tizimining

moddiy texnika bazasini mustahkamlash, shifoxonalarni zamonaviy yuqori texnologiyali tibbiy apparatura bilan ta'minlash bu borada O'zbekistonda jahon andozalarga mos tibbiy apparaturalar ishlab chiqarishni tatbiq etish kabi misli ko'rilmagan o'zgarishlar amalga oshirildi.

Shu bilan bir qatorda xalq salomatligi yo'lida xizmat ko'rsatib kelayotgan tibbiyot xodimlarining mehnati ham yuqori baholanib kelinmoqda. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yilning 26-may sanasida imzolangan farmoni asosida sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun "Salomatlik" ordeni va "Sog'lom turmush" medalining joriy etilishi buning yorqin isbotidir.

2020-yilning sentyabr holatiga ko'ra 14 ta (*Boysun, Qiziriq, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on, Sariosiyo, Sho'rchi, Oltinsoy tumanlari va Termiz shahar SEOMlarning vaksinalarini saqlash ombori binosini qurilishi hamda*

Angor, Oltinsoy, Sariosiyo, Boysun va Muzrabot tuman tibbiyot birlashmalarining oqova suv inshootini o'rnatish) obyektlarda qurilish-rekonstruksiya ta'mirlash ishlari yakunlanib, foydalanishga topshirilgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, Surxondaryo viloyatida koronavirusga qarshi kurashish, uni bartaraf etish borasida butun respublikada bo'lgani kabi ishlar jadal sur'atlarda olib borildi. Kasallikni yuqtirib olgan aholiga tezkor va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatildi. Shuningdek, xalq salomatligi yo'lida xizmat ko'rsatib kelayotgan tibbiyot xodimlarining mehnati ham yuqori baholandi. Bundan tashqari, ushbu davr mobaynida shifoxonalarni zamonaviy yuqori texnologiyali tibbiy apparatura bilan ta'minlash bu borada O'zbekistonda jahon andozalarga mos tibbiy apparaturalar ishlab chiqarishni tatbiq etish kabi misli ko'rilmagan o'zgarishlar amalga oshirildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Surxondaryo viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi. 112-yig'ma jild. 150-varaq.
2. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 77-fond, 5-ro'yxat, 112-ish, 91-varaq.
3. Surxondaryo viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi. 116-yig'ma jild. 89-varaq.
4. Surxondaryo viloyati hisoblash markazi ma'lumoti 2020-2021 yy. Termiz.
5. Surxondaryo viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi joriy arxivi. 119-yig'ma jild. 148-varaq.
6. Surxondaryo viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi. 123-yig'ma jild. 18-varaq.
7. Surxondaryo viloyat hokimligi Iqtisodiyot va statistika boshqarmasi. 2020.10.01. 125-bet.